



CENTRAL ASIA IN THE FOREIGN POLICY OF THE NEW UZBEKISTAN

M. F. Khujanova

Lecturer, Doctor of Philosophy (PhD) in History

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

Mukhayyo Jalilova

Master's student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "New Uzbekistan," the "Central Asia-2040" concept, the "Samarkand Consensus," the "China-Kyrgyzstan-Uzbekistan" railway corridor, economy, politics, good-neighbourliness.

Received: 25.05.25

Accepted: 27.05.25

Published: 29.05.25

Abstract: The article explores the role and importance of the Central Asia region in the foreign policy of New Uzbekistan, as well as the key directions of New Uzbekistan's foreign policy aimed at developing mutually beneficial cooperation with the Central Asian countries and its future prospects. It also analyzes the key aspects of Shavkat Mirziyoyev's foreign policy and his relations with the Central Asian countries.

YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MARKAZIY OSIYO

M. F. Xujanova

o'qituvchi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

Mukhayyo Jalilova

Magistratura talabasi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, "Markaziy Osiyo-2040" konsepsiysi, "Samarqand konsensusi", "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'l magistrali, iqtisodiyot, siyosat, yaxshi qo'shnichilik.	Annotatsiya: Maqlada Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining o'rni va ahamiyati, shuningdek, Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga
---	--

qaratilgan asosiy yo‘nalishlari va kelajakdagi istiqbollari o‘rganiladi va Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosati va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarining muhim jihatlari tahlil qilinadi.

ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

М. Ф. Хужанова

*Преподаватель, доктор философских наук (PhD) по истории
Джизакский государственный педагогический университет
Джизак, Узбекистан*

Мухайё Джалилова

*студент магистратуры
Джизакский государственный педагогический университет
Джизак, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Новый Узбекистан, концепция «Центральная Азия-2040», «Самаркандский железнодорожный коридор Кыргызстан – Узбекистан», экономика, политика, добрососедство.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и значение региона Центральной Азии в внешней политике Нового Узбекистана, а также основные направления внешней политики Нового Узбекистана, направленные на развитие взаимовыгодного сотрудничества с государствами Центральной Азии и его будущие перспективы. Также анализируются ключевые аспекты внешней политики Шавката Мирзиёева и его отношения с государствами Центральной Азии.

KIRISH

O‘zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o‘rtasida o‘xshash jihatlar ko‘p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketgani bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, tarixi, o‘ziga xos turmush tarzi va yaqin qo‘shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni taqozo eta boshladi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xalqaro munosabatlar sohasida ham bir qancha vazifalar belgilanmoqda. Ushbu maqolada, Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosati va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarining muhim jihatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada, Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini tahlil qilish uchun tarixiy tahlil, statistika, ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar va mintaqaviy hamkorlikni o‘rganish metodlari qo‘llaniladi. Tarixiy tahlil orqali, aloqalarning shakllanishi va o‘zgarishi, shuningdek, mustaqillik davrida yuzaga kelgan muammolar va ularni hal etish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar orqali, xalqaro munosabatlar, diplomatiya va siyosatdagi o‘zgarishlar o‘rganiladi. Statistika yordamida esa, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, savdo aloqalarining rivojlanishi va investitsiya oqimlari tahlil qilinadi, shuningdek, xalqaro siyosatchilarning Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati haqidagi fikrlari asosida metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Maqola Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro aloqalariga oid statistik ma’lumotlar, so‘nggi yillardagi diplomatik tashriflar va rasmiy hujjatlar orqali tahlil qilinadi. Boshqa tomondan, adabiyotlar tahlili orqali O‘zbekistonning mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalaridagi o‘zgarishlar ham yoritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonning qo‘shti davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi. Bundan bor-yo‘g‘i sakkiz yil oldin chegaralarimiz deyarli to‘liq yopilgan edi. Biz chegara hududlaridagi mojarolar va minalangan dalalarga, transportblokadalariga, savdo sohasida baland to‘siqlar o‘rnatilganiga guvoh edik. Suv resurslaridan, yaylovlar va suv xo‘jaligi ob’ektlaridan foydalanish masalalari bo‘yicha tinimsiz tortishuvlarning ochiq qarama-qarshilikka aylanib ketish xavfi bor edi. Mintaqadagi ba’zi kuchlar ishonchsizlik ruhini avj oldirish va umumiylar tarixiy merosimizdan o‘z manfaatlari uchun foydalanish orqali muxoliflik va raqobatni keltirib chiqarardi. Tarqoqligimiz bizni zaiflashtirar, birlashish istiqbollaridan mahrum etar, mintaqalarning salohiyatini mushtarak manfaatlar yo‘lida ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilar edi. Bularning barchasi asrlar davomida yonma-yon tinch-totuv yashab kelgan, bir dinga e’tiqod qilgan, umumiylar urf-odat va an’analarga ega bo‘lgan, minglab ko‘rinmas rishtalar bilan bog‘langan Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-sivilizatsiyaviy qadriyatlariga mutlaqo zid edi. Shuni e’tirof etish kerakki, tub o‘zgarishlarga, to‘planib qolgan muammolarni hal etishga, qo‘snilalar bilan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda eskirgan yondashuvlardan batamom voz kechishga bo‘lgan ijtimoiy talabni chuqr his qilgan yetakchi— O‘zbekistonning yangi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bo‘ldi.

O‘zbekiston rahbari yangi yaxlit Tashqi siyosat doktrinasini shakllantirdi. Unda xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning dolzarb muammolari, zamonaviy tahdid va xatarlar, yangi dunyo tartibotini shakllantirish va boshqa masalalarga nisbatan O‘zbekistonning qarashlari va yondashuvlari belgilangan. Ushbu Doktrinada O‘zbekiston Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan.

“Qo’shnilar bilan hech qanday muammo bo‘lmasligi”ga erishish eng muhim maqsad qilib qo‘yildi. Mamlakatimizda Markaziy Osiyo aholisining yarmidan ko‘pi, mintaqadagi barcha xalqlarning yirik jamoalari yashaydi. O‘zbekiston taraqqiyotining deyarli barcha hayotiy muhim masalalari – suvdan tortib, transport yo‘laklari, mintaqaviy xavfsizlik va savdo-sotiqqachachegaradosh davlatlar bilan yaxshi qo’shnichilik va oldindan taxmin qilish mumkin bo‘lgan munosabatlarga bog‘liq.

Aynan shuning uchun ham O‘zbekiston rahbari 2017-yilda Parlamentga yo‘llagan birinchi murojaatnomasida ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab, “Mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Biz yaqin qo’shnilarimiz Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qирг‘изистон bilan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz”, deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev. Davlatimiz rahbari saylovdan keyin ko‘p vaqt o‘tmay Ashxobod va Ostona shaharlariga ilk rasmiy tashriflarini amalga oshirib, Markaziy Osiyo – ustuvor, degan tamoyilni yana bir bor tasdiqlagani beziz emas. Shu ma’noda, Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari (MODRMU) yo‘lga qo‘yilishi butun mintaqqa uchun eng muhim voqeа bo‘lib, bugungi kunda barqarorlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyot hududini birgalikda barpo etishga qaratilgan mintaqaviy muloqotning samarali maydoniga aylandi.

Muntazam uchrashuvlar o‘tkazish g‘oyasi ilk bor O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari mamlakat tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi “tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo” ekanini, O‘zbekistonning barcha sa’y-harakatlari “o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo’shnichilikni mustahkamlash”ga qaratilishini ta’kidlagan edi.

2017-yilning noyabr oyida Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyligi kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda ishtirok etgan mintaqaning besh davlati tashqi ishlar vazirlari O‘zbekiston yetakchisi tomonidan ilgari surilgan tashabbusni – davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini ta’sis etish to‘g‘risidagi taklifini qo‘llab-quvvatladi. Aynan o‘shanda barcha mamlakatlarning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, o‘z davlatlari va butun mintaqqa uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni birgalikda muhokama qilish, ularga yechim izlash va qaror qabul qilish maqsadini ifoda etuvchi “Samarqand konsensusi” shakllandi. "Samarqand konsensusi"ni xalqaro hamjamiyat ham qo‘llab-quvvatladi. Oradan atigi yarim yil o‘tib, 2018 yil iyun oyida O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minalash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni

mustahkamlash” rezolyutsiyasini qabul qildi. Ushbu hujjatda Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqada barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa’y-harakatlari va tashabbuslari yuqori baholandi.O’zbekiston Qozog‘iston bilan chegarani huquqiy rasmiylashtirishni to‘liq yakunladi, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan chegarani delimitatsiya qildi. Chegaradagi o‘nlab o‘tkazish punktlari o‘z faoliyatini tiklab, mamlakatlarimiz o‘rtasida odamlarning harakatlanishini sezilarli darajada osonlashtirdi.

Bugungi kunda O’zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi chegaralarni haqli ravishda do‘slik va yaxshi qo‘sningchilik ko‘prigi, deb atash mumkin. 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab ichki hujjat –fuqaro ID-kartasini taqdim etgan holda O’zbekiston-Qirg‘iziston chegarasini kesib o‘tish tartibi amal qilayotgani buning tasdig‘idir. Xuddi shunday loyiha Qozog‘iston tomoni bilan ham muhokama qilinmoqda.Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil avgust oyida bo‘lib o‘tgan Ostona sammitida Markaziy Osiyoda milliy ID-kartalarni o‘zaro tan olish va “Bir tur – butun mintaqा” tamoyili asosida ommaviy turistik mahsulotlarni ishlab chiqishni taklif qildi.

Shu bilan birga, Tojikiston-Qirg‘iziston chegarasini tavsiflashda sezilarli yutuqlarni ko‘rmoqdamiz. Bugungi kunda chegara umumiy uzunligining 90 foizdan ziyod qismi bo‘yicha kelishuvga erishilgan.Boshqacha aytganda, bularning barchasi turli kelishmovchiliklarga qaramay, tomonlar o‘zaro ishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olgan holda maqbul bitimlarga tayyorlik tamoyillariga amal qilsa, o‘tkir, nozik va murakkab muammolarni hal qilish mumkinligini ko‘rsatadi.Ulkan mintaqamizda ro‘y bergan “jarayonlarni qayta ishga tushirish” mexanizmi barcha uchun manfaatli bo‘ldi. Yuqori darajadagi birlashuv tufayli mintaqा iqtisodiyoti taraqqiy etmoqda. Kooperatsiya va mintaqा ichida tovar ayriboshlash darajasi sezilarli oshdi, xorijiy sheriklar bilan aloqalar kengaydi.Mintaqadagi savdo hajmi 4,4 barobar, qo‘sma korxonalar soni 5 barobar, o‘zaro investitsiyalar hajmi qariyb 2 barobar oshdi.Agar statistik raqamlarga e’tibor bersak, 2024-yil yanvar-noyabr oylarida O’zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo hajmi 6.3mlrd dollarga yetganini,bu umumiy tashqi savdo hajmining 10,6%ini tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda O’zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasidagi eng katta ulushi Qozog‘iston hissasiga – 61%, qolgan qismi: Turkmaniston – 17%, Qirg‘iziston – 12% va Tojikiston – 10% to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo ochilayotgan imkoniyatlarni birgalikda amalga oshirishga qodir bo‘lgan yanada jips mintaqaga aylandi. O’zbekiston Qirg‘iziston va Tojikiston bilan yirik qo‘sma loyihalarni moliyalashtirish uchun investitsiya jamg‘armalarini tuzdi. Ushbu institutlar doirasida avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish boshlangan. Masalan, Qozog‘istonda yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi qo‘sma korxona faoliyat yuritmoqda. Tojikistonda maishiy texnika ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. Qirg‘iziston va Qozog‘iston Issiqko‘l viloyati hududida quyosh elektr

stansiyalarini qurish bo'yicha qo'shma korxona tashkil etdi.O'zbekiston tashabbusi tufayli mintaqaning barcha mamlakatlari bilan chegaraoldi savdo zonalarini tashkil etish ishlari boshlandi. Hozirgi vaqtida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan bunday hududlarni shakllantirish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.Natijada oxirgi 7 yilda mintaqqa iqtisodiyoti 6,3 foizga o'sib, uning hajmi 450 milliard dollarga yaqinlashdi.Umumiy o'zgarishlar orasida suv, suv-energetika va ekologiya masalalari bilan bog'liq yo'nalishda katta yutuqlar kuzatilmoqda.Bu borada 2023-yilda 6-yanvar kuni Bishkekda O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston o'rtasida 1-Qambarota GESini birgalikda qurish bo'yicha imzolangan "yo'l xaritasi" imzolandi. GES Markaziy Osiyo mamlakatlarini elektr energiyasi bilan ta'minlashi hamda mintaqaning suv ta'minotini barqarorlashtirishi kutilmoqda,shuningdek, yozgi vegetatsiya davrida To'xtag'ul suv omboridan suvni oqizish masalasini birgalikda hal qilish bo'yicha kelishuv muhim ahamiyatga ega bo'ldi.O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida Bahri Tojik(Qayroqqum) suv omborining vegetatsiya davrida ishlash rejimi bo'yicha kelishuvga erishilgani ham muhim ahamiyat kasb etib, bu Sirdaryo o'rta oqimida zarur miqdorda suv yetkazilishini ta'minlash imkonini berdi.

2024-yil 4-avgust oyida Ostona shahrida yakunlangan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvi mintaqadagi barcha mamlakatlarning so'nggi olti yildagi navbatma-navbat raisligi yakunlarini ramziy tarzda sarhisob qildi va ushbu noyob formatdagi davlatlararo hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi.Mamlakatlarimiz birinchi marta mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirishga doir yagona qarashni—“Markaziy Osiyo— 2040” konsepsiyasini kelishib oldilar. Bu hujjat davlatlarning mintaqaviy hamkorlik jarayoniga ortga qaytmas va izchil tus berishga sodiq ekanini tasdiqladi. U o'zaro hamkorlikning barcha asosiy sohalarini qamrab oldi, istiqbolga mo'ljallangan aniq amaliy rejalarini, ularni amalga oshirish shakllari va mexanizmlarini belgilab berdi.Ostona sammiti o'z mohiyatiga ko'ra, mintaqqa davlatlarining hamkorlikni yanada izchil ilgari surish, Markaziy Osiyo beshligi doirasida har tomonlama kooperatsiyani kengaytirishga bo'lgan intilishini namoyish etdi.Yangi geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo'li davrida mintaqqa egallagan o'rinni-Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi ko'prik, turli iqtisodiy manfaatlar chorrahasi maqomini yana o'ziga qaytarmoqda. Mintaqqa Transkaspiy yo'lagi, Shimol-Janub yo'nalishi, shuningdek, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'laydigan, Xitoydan Yevropaga boradigan yo'laklarni diversifikatsiya qiladigan yangi loyihalar doirasidagi transport-kommunikatsiya yo'nalishlarining muhim qismiga aylanmoqda.

2024-yil 6-iyun kuni Pekinda mintaqamizni Yevropa temir yo'llari tarmog'i bilan bog'lashga mo'ljallangan “Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston” temir yo'l magistrali qurilishi to'g'risida bitim tuzilishi Markaziy Osiyo uchun transport-tranzit yo'nalishlarini diversifikatsiya

qilishda katta yutuq bo'ldi.Temiryo'l qurilishi murakkab tog'li relyefdan o'tuvchi "Qashg'ar-Torugart-Makmal-Jalolobod-Andijon" birlashtirilgan yo'nalishi bo'ylab amalga oshiriladi. Bu yo'nalish bo'yicha 20 ta stansiya, 42 ta ko'pri, 25 ta tonnel barpo etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit-logistika infratuzilmasi, omborxona va terminallar quriladi. Ushbu yo'l orqali yiliga 15 million tonna yuk tashiladi. Xitoydan Yevropa mamlakatlariga yuklarni yetkazib berish masofasi va muddati bir necha ming kilometr va deyarli bir haftaga qisqaradi. Yo'lovchilarni muntazam tashishni yo'lga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tahvilii tadqiqotlar markazi direktori Sayfiddin Jo'rayevning fikriga ko'ra: Markaziy Osiyoda regional barqarorlik va xavfsizlik hamda keng qamrovli iqtisodiy bozor shakllanishi ham investorlarning mintaqaga qiziqishini oshirmoqda. Jumladan, 2016-2022 yillarda Markaziy Osiyoga investitsiya kiritilishi jahondagi umumiylajm – 1,6 foizdan 2,8 foizga ko'tarilib, 2022 yil qariyb 40 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2016 yil (\$26,7 mlrd)ga nisbatan 50 foiz ko'p. "Boston Consulting Group" bashoratiga ko'ra, 2030 yilgacha Markaziy Osiyo 170 milliard dollarlik investitsiya jalb qila oladi. Shuning 40-70 milliard dollarli xomashyo bo'limgan sohalarga yo'naltiriladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyonи barqarorlik va izchil taraqqiyot hududiga aylantirish bo'yicha keng qamrovli strategiyasining yana bir muhim tarkibiy qismi Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishishdir. 2016 yilda Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan Toshkentning afg'on siyosati tizimli va kompleksli tus oldi.Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022 yilda qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash" maxsus rezolyutsiyasida Markaziy Osiyo va umumiylaholisi qariyb 2 milliard kishi bo'lgan Janubiy Osiyo o'rtasida aloqalarni o'rnatishda Afg'oniston alohida o'rin tutishi e'tirof etiladi.Toshkentning Afg'oniston bo'yicha joriy siyosatining yana bir muhim xususiyati shundaki, O'zbekiston Afg'onistonga butun Markaziy Osiyoning uzviy, ajralmas qismi sifatida qaraydi. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev aytganidek mintaqamizning transport va transit salohiyatini oshirish biz strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo hududi orqali dunyoning asosiy bozorlariga, jumladan, Xitoy,Hindiston, Pokiston va Osiyoning boshqa mamlakatlariga,Ozarbayjon va Turkiyadan Yevropa davlatlariga chiqish muhimdir. Markaziy Osiyo "yuragi"da joylashgan, mintaqaning barcha davlatlari bilan umumiyl chegaraga ega bo'lgan yagona davlat – O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot davrini umumiyl rivojlanish asnosida mintaqadan ayro tasavvur qilish qiyin.

Hech kimga sir emaski, yangi Markaziy Osiyo jahondagi qudratli davlatlar va yetakchi davlatlarni o'ziga tortadigan mintaqaga aylandi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo 10 dan ziyod "Markaziy Osiyo+" formatlari doirasida 40 ga yaqin davlat va ikkita mintaqaviy tashkilot bilan faol hamkorlik qilmoqda. Hamkorlik salohiyati va imkoniyatlari haqida gapirganda, ta'kidlash

joizki, ushbu iqtisodiy makondagi davlatlar hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 75 foizi to‘g‘ri keladi va ularda to‘rt milliardga yaqin aholi istiqomat qiladi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun bu, eng avvalo, iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish manbalari, tovar va xizmatlarimizni ilgari surish uchun yangi bozorlar, shuningdek, ko‘p millionli sayyohlar oqimidir.

O‘z navbatida, Markaziy Osiyo hamkorlarimiz uchun 80 milliondan ortiq iste’molchiga ega istiqbolli bozor hisoblanadi. Bu yerda jahon neft va gaz zaxiralaring 7 foizi, raqamli va yashil transformatsiya uchun zarur bo‘lgan o‘ta muhim nodir materiallarning katta zaxiralari to‘plangan. Xususan, mintaqada mavjud 10 turdagи o‘ta muhim materiallar zaxirasи 5,2 foizdan 38,6 foizgacha bo‘lgan miqdorni tashkil etadi. Markaziy Osiyo raqobatbardosh mehnat resurslari ko‘payib borayotgan mintaqa hamdir. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050 yilga borib mintaqa aholisi 100 milliondan oshadi. Shu bilan birga, u eng yosh mintaqalardan biri bo‘lib qoladi –aholining o‘rtacha yoshi 30 ga yaqin bo‘ladi. Markaziy Osiyo o‘z sub’ektligini mustahkamlab, mohiyatan jahon maydonida mustaqil ishtirokchiga aylanib bo‘lganini tan olmaslikning iloji yo‘q. Ayni vaqtda mamlakatlarimiz tashqi hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda umumiy yoki yaqin pozitsiyadan turib faol harakat qilmoqda.

Markaziy Osiyodagi o‘zgarishlar natijalari butun dunyoda yuqori baholanmoqda va e’tirof etilmoqda. BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markaz rahbari Kaxa Imnadz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining so‘nggi sammitidagi nutqida mintaqadagi strategik sheriklikning yangi sifatiga e’tibor qaratib, "Markaziy Osiyo ko‘p jihatdan mintaqaviy hamkorlikning noyob modeli va mintaqada yashovchi barcha xalqlar farovonligi yo‘lida yaxshi qo‘shinchilik munosabatlarini qanday qurish kerakligi borasida dunyoning boshqa mintaqalari uchun namuna bo‘la oladi", dedi. Rossiya Federatsiyasi Tashqi va mudofaa siyosati kengashi raisi F.Lukyanov ham xuddi shunday fikrda. Uning so‘zlariga ko‘ra, barqarorlik va ochiqlik Markaziy Osiyoning tashrif qog‘oziga aylandi.

“Bu ijobiy o‘zgarishlarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ochiqlik va jarayonga daxldorlik yo‘liga qat’iy o‘tgan O‘zbekiston hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Bunday yondashuv butun mintaqaga shiddatli kuch bermoqda, boshqalarga namuna bo‘lmoqda. Aynan O‘zbekiston rahbariyati va shaxsan Prezident Mirziyoyevning faolligi va g‘ayrati ob’ektiv tendensiyalarni real jarayonlarga aylantirish uchun zarur sur’atni ta’minlamoqda”, deb hisoblaydi F.Lukyanov. Xadson instituti (AQSH) eksperti Richard Vaytsning ta’kidlashicha, “Sh.Mirziyoyev Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilashda namoyish etgan azmu shijoat ushbu hamkorlar Toshkentning yangi mintaqaviy yondashuvini kutgan va olqishlaganidan dalolat beradi”. Uning so‘zlariga ko‘ra, mamlakat Yevroosiyoning qoq markazida, ko‘plab “Sharq-G‘arb”

va “Shimol-Janub” transport yo‘laklari orasida joylashgan bo‘lib, bu “Toshkentning ko‘magi yirik mintaqaviy loyihihalar uchun juda muhim va Yevroosiyoning barqarorligi va ravnaqi uchun hayotiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi”. Xalqaro ekspertlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy o‘ziga xosligini shakllantirish qo‘snilar bilan yaqinlashuvni ilgari surishda muhim o‘rin tutishini e’tirof etmoqda.

XULOSA

Umuman olganda, 2017 yilda O‘zbekistonidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlar hamda Toshkentning yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik bo‘yicha innovatsion siyosati natijasida boshlangan Markaziy Osiyoda mintaqaviy yaqinlashuv jarayoni bugungi kunda barqaror va ortga qaytmas tus oldi. Global falokatlar sharoitida Yevroosiyoning qoq yuragidagi strategik muhim mintaqada davom etayotgan bu tinch va bunyodkorona transformatsiya jarayoni ekspertlar muhokamasining mavzusiga aylangan va kelajakda chuqur ilmiy izlanishlarning predmeti bo‘ladigan, jahon siyosatining noyob fenomenidir. Hech shubhasiz, ko‘z o‘ngimizda shakllanayotgan Yangi Markaziy Osiyoning bosh me’mori mintaqqa tarixiga o‘z nomini yozib ulgurgan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdir. Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosati, Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy aloqalar o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minladi va O‘zbekistonning mintaqaviy va global maydondagi mavqeini mustahkamladi. Biroq, mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yanada kuchli siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o‘rnatish zarur.

Foydalaniman adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “PF-60-son Farmoni
2. Sh.Mirziyoyev.Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.Toshkent:”O‘zbekiston” nashriyoti,2021,356-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyligi kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqi 10.11.2017
4. <https://president.uz/oz/lists/view/1371> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017
5. <https://president.uz/oz/lists/view/7791> Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi boshlanishiga bag‘ishlangan marosim ishtirokchilariga murojaati 27.12.2024
6. Abdulaziz Komilov “O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA YANGI MARKAZIY OSIYO” O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bayonoti 14.08.2024

7. Abdulla Aripov “Qambarota GES-1 O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega”
<https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/02/qambarota/>
8. <https://www.google.com/search?q=yangi+uzbekistonning+va+markaziy+osiyo+davlat+lari+bilan+hamkorlig>
9. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-faol-tashqi-siyosat-va-mintaqaviy-hamkorlik_64-2532
10. https://uza.uz/oz/posts/eldor-aripov-markaziy-osiyo-qisqa-davr-ichida-tubdan-ozgar-di_650086
11. https://www.railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti/36100/ Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li
12. <https://uzreport.news/economy/o-zbekistonning-markaziy-osiyo-mamlakatlari-bilan-tashqi-savdo-hajmi-6-3-mlrd-dollarga-yetdi>
13. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-prezidentining-bmt-bosh-assambleyasi-72-sessiyas-22-09-2017>